

ZAMONAVIY ILM-FAN TARAQQIYOTIDA MADANIYATLARARO MULOQOTNING DOLZARB VAZIFALARI

O. G'aybullayev¹

Annotatsiya:

Yangi O'zbekistonning ilm-fan taraqqiyotiga keng imkoniyatlar yaratib berishi xalqning jahondagi turli tillarda so'zlashuvchi xalqlar madaniyatlararo muloqotining rivojiga olib keldi. O'zining zamonaviy ta'lim dasturlari asosida lingvistik jarayonlarni rivojlantirib, jamiyatning tilga bo'lgan ehtiyojini chet tillarni yosh avlodga keng ko'lamda o'rgatishni kuchaytirishi bilan alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Kalit so'zlar: ta'lim, madaniyatlararo muloqot, jamiyat, shaxs, integratsiya, axloqiy qadriyatlar, bag'rikenglik, siyosiy ong.

doi: <https://doi.org/10.2024/cdv2wx41>

Yangi O'zbekistonning "Harakatlar strategiyasi" jamiyatda o'z oldiga qo'ygan maqsadlar kesimida xorijiy tillarni o'rganish borasida biryozlamalikdan yiroqlashib, zamonaviy dunyo bilan sobitqadamlik asosida yashashni ko'zladi. Unda inson manfaat va ehtiyojlari asosiy masala bo'lib, tilga e'tibor siyosiy tafakkur darajasida ijtimoiy institutlar faoliyatida mujassamlashadi. Jamiyatda xalq bilan madaniyatlararo muloqotning kengayishi masalasi voqelik bilan dialektik aloqadorlikda yo'lga qo'yildi. "Ota-bobolarimiz ilm o'rgatish bilan birga farzandlarimizga avloddan-avlodga o'tib kelayotgan milliy-ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni singdirganlar". O'zbeklarning aksariyati yaqin odamlarning, qo'shnilarining omon-esonligi, turmushining mustahkam bo'lishi, farzand tarbiyasini bir-birlari bilan doimiy muloqotda bo'lishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu qadimdan o'zbek xalqining kindik qoni to'kilgan zaminga, ajdodlarining qadriyatlariga mos milliy tilni rivojlantirishga olib keladi. "Madaniyatlararo muloqot – madaniy faoliyat turi sifatida yoshlar siyosiy ongining o'zgarishlarini tartibotga parallel holda axloqiy me'yorlar bilan tartiblashtiradi. U jamiyatda shaxslar o'rtasidagi o'zaro manfaatlarni hisobga olish, halollik, poklik, bag'rikenglik, ishonchlik kabi fazilatlarining amal qilinishini anglatadigan tushunchadir". Shu o'rinda qo'ni-qo'shnichilikni madaniyatlararo muloqotga misol qilib keltirsak, unda turli millat vakillari bo'lgan qo'shnilar o'rtasida o'zaro ishonch, xabar olish va moddiy yordam berish umuminsoniy qadriyat sifatida birinchi o'ringa qo'yilgan. Ular orqali turli madaniyatlar bir nuqtada kesishib, xalqlarning bir-birlari bilan dialektik aloqadorliklari kengayib borgan. O'zbek xalqi ham azaldan ichki va tashqi aloqalarni mustahkamlashda siyosiy ongga urg'u bergan.

Shu ma'noda ham obyektiv jarayon sifatida madaniyatlararo madaniyatda tilning qadriyatli tomonlari shakllangan. Tarixiy taraqqiyotning notekis rivojlanish qonuniyatiga mos ravishda tilning ko'lami, chegarasi, amal qilish muddatlari xilma-xil bo'lishi tabiiy jarayondir. U insoniyat va mamlakatlar taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazishi bilan birga, ilm-fan, texnika va texnologiyaning rivojlanishiga hamda ularning jahonda keng ommaviylashuviga, insonlarning moddiy farovonligining oshishiga uzining ijobiy ta'sirini o'tkazuvchi omil hisoblanadi. Zamonaviy ilm-fanga monand madaniyatlararo muloqotning qadriyatli jihatlari ko'proq uning targ'ibotchilari bo'lgan shaxslarning keng tafakkuriga ham

¹ G'aybullayev Otabek Muxammadiyevich, SamDCHTI Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, falsafa fanlari doktori, professor

bog'liq. Shaxsning madaniyatlararo muloqotga kirishishi turli tillarda, turlicha ijtimoiy muhitlarda, individual yoki jamoaviy tarzda kechishishi mumkin. Jahonda taraqqiyot yo'lidan borayotgan va taraqqiyotdan orqada qolayotgan mamlakatlarning texnik va texnologik jihatdan bu madaniyatlararo muloqotga bog'lanib qolayotganligi tilning umuminsoniyatga xizmat qilish funksiyasini o'zgartirib yubormoqda.

Jamiyatda til orqali fuqarolarning ning madaniyatlararo muloqot qilishi asosida faol shaxsga aylanishi, jamoaviy tendensiyalarni ijtimoiy birliklar bilan bog'lash dolzarb ahamiyatga ega. "Lekin ular o'zlarining bilim saviyasini oshirish, intellektual salohiyatini mustahkamlash, mamlakat taraqqiyoti va xalq farovonligi yo'lida foydalanishga harakat qilsalar, bu, o'z navbatida, nafaqat mamlakatning ma'naviy-ma'rifiy, balki siyosiy mustahkamligini mustahkamlashda amaliy ahamiyatga ega bo'ladi". Shunday qilib, ilm-fan taraqqiyoti madaniyatlararo muloqot bilan chambarchas bog'liq bo'lib, keyingi paytlarda u taraqqiy etgan dunyoda o'zlarining siyosiy hukmronligini o'rnatish omiliga aylanib bormoqda.

Aslida madaniyatlararo muloqot - insonning dunyoni o'zlashtirishda tabiat va jamiyatdagi dialektik aloqadorlikni hosil qilishi asosida o'z madaniy salohiyatini boyitishi, ularning natijasi o'laroq yuzaga kelgan moddiy borliqni tushunishdir. Unda uchta muhim jihatga: a) inson faoliyati bilan bogliqligiga; b) inson tomonidan o'zlashtiriladigan tabiiy ne'matlarga; v) insonning ularni yaratishdagi salohiyatiga asosiy e'tibor qaratilgan. Haqiqatan ham, madaniyatlararo muloqot insonning jismoniy hamda aqliy faoliyati natijasida yuzaga keladigan moddiylikning aks etishi va ma'naviylikning ustunligidan iborat. Ya'ni, insonning aql-zakovat va jismoniy salohiyati bilan yaratilgan barcha moddiy boyliklar bir vaqtning o'zida moddiy va ma'naviy qadriyati hisoblanadi. Umuman olganda, har bir millat yoki xalqning asrlar davomida yaratgan qadriyatlari avlodlar uchun namuna, yoshlarning hayot yo'lini topishida mayoq vazifasini bajaradi. Bugun bu haqiqat o'zbek xalqining yoshlari amaliy faoliyatida o'zining yorqin isbotini voqelikda ko'rsatib turibdi.

Umuminsoniy qadriyatlarni, xususan, jamiyatning qadriyatli tomonlarini o'rganishda faylasuflar o'zlarining asarlarida madaniyatlararo muloqotga e'tibor qaratganlar. Ular o'z davrining yetuk nazariyalarini yaratibgina qolmasdan, xalqning hayot yo'lini boyitishga qaratilgan bebaho asarlarini yozib ham qoldirganlar. Har bir ta'limot va nazariyaning negizida muayyan madaniyatlarning kesishuvi, xalqning amal qilish mexanizmlari ifodalanadi. O'zbek xalqining ham mukammal axloq normalariga ega madaniyatlararo muloqoti mavjud bo'lib, ulardan insonning qay darajada foydalanishi muhimdir. Bunda, birinchidan, madaniyatlararo muloqot jamiyat uchun ozuqa vazifasini bajarib, inson irodani mustahkamlaydi. U davlatda muayyan sub'ektlarni birlashtirub, tilning mukammalligini oshiradi. Ikkinchidan, madaniyatlararo muloqotda inson harakatchanlikni oshirib, qadriyatlarni boyitadi. Bu harakatchanlik tufayli ommaning ongini yangilab turishi, qadriyatlarga nazariy yondashuvi natijasida o'zgarib boradi. Bunday faoliyatda guruhlar manfaati uchun ijtimoiy institutlar bilan birlashuvi, manfaatli maqsadlarni bajarishi muhim dialektik holat sanaladi.

Jamiyatda madaniyatlararo muloqotni siyosiy iroda orqali singdirish, mavjud tizimning axloqiy degradatsiyasini yo'qotish, shaxsning muayyan tabaqalar bilan bog'lanishlarni mo'tadillashtirish o'zining ijobiy jihatlariga ega. Xalqimiz hayotida jamoa bo'lib yashash ruhining ustuvorligini, xalq ongida ustuvor bo'lgan fikr, do'st va yaxshi qo'shni bo'lib, tinchlik va totuvlikda, yaqindan hamkorlikda yashashni, oila, mahalla, el-yurt, Vatan tushunchalarini muqaddas bilishni inson ongiga yoshlikdan har bir ota-ona tomonidan milliy ruhda singdirib boriladi. Shaxsning ulg'ayishida birlamchi bug'inlar sifatida ota-onaning roliga, mahalla jamoalariga, rahbarlarning jamoadagi yutuqlariga yuksak hurmat-e'tibor ko'rsatish, butun jamiyatni hurmat qilishni, millatning o'lmas ruhi, millat ma'naviyatining hayotbaxsh manbai sifatida ona tiliga muhabbat uyg'otish, uni sevishtirish, kattalarga hurmat-ehtirom, kichiklarga izzat-e'tibor degan qoidaga amal qilishni o'rgatish barchamizning vazifasidir. Millatning

ruhiyatiga singib ketgan madaniyatlararo muloqot orqali voqelikda ma'rifatpararlikni kuchaytirish, ta'lim-tarbiyaning jamiyat ongidagi rolini bilish muhimdir. Mamlakatning madaniyatlararo muloqot dunyosini xalqining e'tiqodida "O'zbekiston – yagona Vatan" – degan ulug' nom bilan shakllantirish va rivojlantirishda siyosiy ong doimo dolzarb bo'lib kelgan. Siyosiy ongni anglash millatning tili, urf-odatlar, qadriyatlari, hududiy yagonaligi, ma'naviyatdagi muloqotning keng ko'lamli milliyligini yuksaltirish dialektik yondashuv negizida boyib boradi. Inson hamisha intiluvchanligi, innovatsiyalar olamida yashashi, jamiyatning geniratori bo'lishiga intilishi bilan doimo faoldir.

Har bir shaxsning huquqlarini madaniyatlararo muloqot orqali dialektik o'zaro ishonchini mustahkamlash, o'zaro hamkorliklarni yo'lga qo'yishda xalqaro munosabatlarni rivojlantirishda dolzarb hisoblanadi. Jamiyatda insonlarning muloqoti madaniyatlararo muloqotlar doirasida rivojlanib boradi. Uning tez rivojlanishiga sabab ham bugungi yoshlarning davlat islohotlarida izchillik, millatlarning bir-birlarini qo'llab-quvvatlashlari va ijtimoiy hamkorlik aloqalari yotadi. Shu boisdan, "dunyo hamjamiyatidan munosib o'rin egallashni maqsad qilib qo'yan har qaysi davlat avvalo o'z xalqining milliy tili va madaniyatini asrab-avaylashga, rivojlantirishga intiladi". Zamonaviy jamiyatda madaniyatlararo muloqotni kuchaytirishdan maqsad ham ana shu til va madaniyatning birligini, voqelikda namoyon bo'lishini mustahkamlashdir.

Mamlakatlar taraqqiyoti qadimdan boshqa davlatlar bilan madaniyatlararo muloqot negizida tartibotlarni vujudga keltirgan. Ular turli xalqlar ehtiyojlarining umumiy tomonlarini birlashtirib, insoniyat uchun barqaror rivojlanish yo'lini izlaganlar. Bu jarayon muhim va samarali bo'lib, madaniyatlar kesimida uslubiy va amaliy mexanizmlarni yaratish kerak. Jamiyat hayotining yadrosi – bu madaniyatlararo muloqotni kuchaytirish, xalqlar bilan aloqalarni kengaytirish sanaladi. Fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida turli xalqlar e'tirof etadigan xalqaro maydondagi madaniyatlararo muloqotda o'z innovatsion qiyofasini tadbqiq qilish aniq maqsadlarni beradi.

Xulosa qilib aytganda, madaniyatlararo muloqot insoniyat rivojlanishi uchun turli sinovlarni yengib o'tishida o'zaro aloqalarni mustahkamlab, xalqlarni bir maqsad sari birlashtiradi. O'z navbatida yoshlarning siyosiy ongiga ta'sir etadigan azaliy qadriyatlarni saqlab qolishga, siyosiy irodani madaniyatlararo muloqot madaniyati asosida yangilashga xizmat qiladi. Qadriyatlarni dialektik yondashuv bilan uyg'un faollashtirish, milliy manfaatlarga salbiy ta'sir qiladigan tafovutlardan asrash, barqaror hamkorlikni siyosatda ifodalash zarur. Voqelikda siyosiy dunyoqarashni madaniyatlararo muloqot aloqalari bilan yoshlar turmushiga singdirib borish xalq uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Samovar, L. A., Porter, R. E., & McDaniel, E. R. (2017). *Intercultural Communication: A Reader*. Cengage Learning.
- [2]. Holliday, A., Hyde, M., & Kullman, J. (2010). *Intercultural Communication: An Advanced Resource Book for Students*. Routledge.
- [3]. Ting-Toomey, S., & Chung, L. C. (2012). *Understanding Intercultural Communication*. Oxford University Press.
- [4]. Byram, M. (1997). *Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence*. Multilingual Matters.
- [5]. Piller, I. (2017). *Intercultural Communication: A Critical Introduction*. Edinburgh University Press.
- [6]. Chen, G. M., & Starosta, W. J. (1998). *Foundations of Intercultural Communication*. Allyn & Bacon.